



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакوف Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



SAUDIYA ARABISTONI YASHIL IQTISODIYOTI VA UNDAGI IJOBIY TOMONLARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH

Doniyorov Og'abek Ilhom o'g'li

GREEN ECONOMY IN SAUDI ARABIA AND APPLYING ITS POSITIVE EXPERIENCE IN UZBEKISTAN

Doniyorov Ogabek Ilkhom ogli

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА В САУДОВСКАЯ АРАВИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ЕЁ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОПЫТА В УЗБЕКИСТАН

Дониоров Огабек Илхом угли

Received: May 14, 2026 May: May 18, 2026 May: May 20, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistonining yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi tajribasi va undagi ijobiy jihatlarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, suv va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish hamda "Vision 2030" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarning mazmun-mohiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, qurg'oqchil iqlim, tomchilatib sug'orish, gidroponika, transchegaraviy suv resurslari, ekologik monitoring.

Abstract: This article analyzes Saudi Arabia's experience in developing a green economy and explores the possibilities of applying its positive aspects in the context of Uzbekistan. The study examines the development of renewable energy sources, reduction of carbon emissions, efficient use of water and natural resources, and the introduction of environmental innovations, with particular emphasis on projects implemented under the "Vision 2030" program.

Keywords: Green economy, environmental policy, sustainable development, arid climate, drip irrigation, hydroponics, transboundary water resources, environmental monitoring.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт Саудовской Аравии в развитии «зелёной» экономики и рассматриваются возможности применения её положительных аспектов в условиях Узбекистана. В исследовании освещаются вопросы развития возобновляемых источников энергии, сокращения углеродных выбросов, рационального использования водных и природных ресурсов, а также внедрения экологических инноваций, с особым акцентом на проекты, реализуемые в рамках программы «Vision 2030».

Ключевые слова: Зеленая экономика, экологическая политика, устойчивое развитие, засушливый климат, капельное орошение, гидропоника, трансграничные водные ресурсы, экологический мониторинг.

KIRISH

Saudiya Arabistonida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini, balki ekologik siyosatni ham qamrab olgan. Ushbu islohotlarning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mamlakatimiz ekologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston, qurg'oqchil iqlim va

degradatsiyaga uchragan yerlar muammosiga ega davlat sifatida, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, cho'llanishga qarshi kurashish va havo ifloslanishini kamaytirish kabi dolzarb ekologik muammolarga duch kelmoqda. Mamlakatda sanoatning rivojlanishi va energiya resurslariga bo'lgan



talabning ortishi ekologik vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi Saudiya Arabistonidagi ekologik islohotlarni O'zbekiston sharoitida qo'llashning imkoniyatlari va ekologik oqibatlarini kompleks baholash hamda O'zbekiston uchun ekologik barqaror rivojlanish yo'lida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bunda suv resurslaridan foydalanishdan tortib, mintaqaviy ekologik hamkorlikgacha bo'lgan keng ko'lamli masalalar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Saad F. Al-Gahtanining "Saudi Arabia's Journey toward a Renewable Future" ³²(2024) maqolasi Saudiya Arabistonining neftga bog'liq iqtisodiyotdan yashil, qayta tiklanadigan energiyaga asoslangan kelajakka o'tish yo'lini keng qamrovli tahlil qiladi.

2. Umarov Pulatning "Sug'oriladigan yer maydonlari va ularning aholi boshiga to'g'ri keladigan miqdori" 2013- yilgi tadqiqotida O'zbekistondagi ekologik siyosatning asosiy muammolari ko'rsatilgan. Muallif suv resurslarining kamayishi, atmosfera ifloslanishi, qishloq xo'jaligida eskirgan texnologiyalar, Orol bo'yi ekologik inqirozi kabi muammolarni tahlil qiladi.

3. Abdullayev Iskandar, Strikeleva Ekaterina va Rakhmatullayev Shavkat 2020 yilda "Water Sector Development in Central Asia : Status Review and Development Options"³³ asarida O'zbekistondagi suv tanqisligi muammosi chuqur tahlil qilingan. Mualliflar tomchilatib sug'orish, suvni qayta ishlash va raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

4. Grace B. Villamor — O'zbekistonga oid tadqiqotlar olib borgan. U hamkasblari bilan "Economic analysis of afforestation of marginal croplands in Uzbekistan" ³⁴nomli maqolani nashr etgan. Unda O'zbekistondagi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer degradatsiyasi, suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi tahdidlari o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy ishni amalga oshirish jarayonida ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, kuzatish, guruhlash hamda boshqa miqdoriy va sifat tahlili usullari qo'llanildi. Mazkur metodlar tadqiqot mavzusini har tomonlama o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish imkonini berdi

TAHLIL VA NATIJALAR

Saudiya Arabistonining qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlari, xususan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy sug'orish usullaridan voz kechish hamda Saudiya Arabistoni bo'ylab 10 milliard daraxt o'stirish 74 million gektardan ortiq yerlarni tiklashga tengdir. Ushbu umumjamiyat sa'y-harakati muhim ekologik funksiyalarni tiklash, havo

sifatini yaxshilash, qum bo'ronlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi.³⁵ O'zbekiston uchun muhim saboq bo'lishi mumkin. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi suv resurslarining asosiy iste'molchisi bo'lib, Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi ekologik muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Saudiya Arabistonining tomchilatib sug'orish, gidroponika va boshqa suv tejovchi usullarni joriy etish tajribasi O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, tuproq sho'rlanishining oldini olish va suv taqchilligini kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekistonda dehqonchilikda sug'orish usullari asosan eskirganligi sababli suv yo'qotishlari yuqori. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining transchegaraviy xususiyatini hisobga olgan holda, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish nafaqat O'zbekistonning, balki butun mintaqaning ekologik barqarorligiga hissa qo'shadi. Saudiya Arabistonining suvni qayta ishlash va dengiz suvini chuchuklashtirish texnologiyalarini qo'llab kelayotgani ya'ni 2018 yilda Al Khafji shahrida dunyodagi birinchi yirik miqyosli faqat quyosh energiyasida ishlaydigan dengiz suvini chuchuklashtirish zavodi ishga tushirildi. 130 million dollar qiymatidagi, 15 MVt quvvatdagi bu zavod kuniga 60 000 kub metr suv ishlab chiqarib, 100 000 kishini toza suv bilan ta'minlaydi. ³⁶Bu loyiha O'zbekiston uchun muqobil suv manbalarini yaratishda qo'l kelishi mumkin. Ushbu texnologiyalarni qo'llash Amudaryo va Sirdaryoga bo'lgan bosimni kamaytiradi va Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Saudiya Arabistonining cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha tajribasi, xususan, 2021 yil martda ishga tushirilgan Saudi Green Initiative (Saudiya Yashil Tashabbusi) Saudiya Arabistoni yerlarining 30 foizini tabiat qo'riqxonalariga aylantirish, 10 milliard daraxt o'tqazish va 40 million gektar degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklashni maqsad qilgan³⁷. Hamda o'simlik qoplamini tiklash, qum ko'chishining oldini olish va yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalari O'zbekiston uchun juda muhim. O'zbekistonning katta qismi cho'l va yarim cho'l hududlaridan iborat bo'lib, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik vaziyat yanada og'irlashgan. Saudiya Arabistonining cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha tajribasi, masalan, saksovul va boshqa cho'l o'simliklarini ekish, tuproqni mustahkamlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish O'zbekistonning cho'l hududlarida ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beradi. Bu esa, ayniqsa, Orolbo'yi mintaqasi uchun muhim.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining yashil infratuzilmani rivojlantirish, xususan, shaharlarda bog'lar va xiyobonlar yaratish, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tajribasi O'zbekiston shaharlarida ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Shaharlarda yashil hududlarning ko'payishi havo ifloslanishini kamaytiradi, issiqlik orollarining paydo

³² <https://www.mdpi.com/1996-1073/17/11/2444>

³³ <https://carececo.org/upload/iblock/6cb/Water%20Sector%20Development...pdf>

³⁴ <https://www.researchgate.net/publication/257765784>

³⁵ <https://www.sgi.gov.sa/about-sgi/sgi-targets/greening-saudi/>

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

³⁶ <https://ussaudi.org/water-in-saudi-arabia-desalination-wastewater-and-privatization/>

³⁷ <https://www.unep.org/news-and-stories/story/saudi-arabia-strives-regreen-deserts>



bo'lishiga qarshi kurashadi va aholining salomatligini yaxshilaydi. O'zbekistonda shaharlarni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish va Saudiya Arabistonining tajribasini qo'llash

ekologik barqaror shaharlarni yaratishga imkon beradi. Bu esa, shaharlarda yashovchi aholining hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

1-jadval:

Saudiya Arabistoni islohotlarining O'zbekiston ekologiyasiga ta'siri: ³⁸Taqqoslash

Iste'mol	Suv resurslariga ta'siri	Cho'llanish darajasi	Havoning ifloslanishi	Biodiversitet
Saudiya Arabistoni (Islohotlardan keyin)	Kamayish ehtimoli	O'sish tendentsiyasi	Kamayishga harakat	Cheklangan o'zgarish
O'zbekiston (Saudiya islohotlari bilan)	Kamayish ehtimoli	Kamayish ehtimoli	Kamayishga harakat	Ijobiy o'zgarishlar

Saudiya Arabistoni suv resurslari tanqisligi sharoitida ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. O'zbekiston uchun ushbu tajribani qo'llashning muhim yo'nalishlaridan biri dengiz suvini chuchuklashtirish texnologiyalarini rivojlantirishdir. Saudiya Arabistonida bu sohada ilg'or texnologiyalar mavjud bo'lib, ularni O'zbekistonga transfer qilish Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining suvni tejash bo'yicha siyosati, jumladan, tomchilatib sug'orish tizimlarini keng joriy etish va suvni tejovchi sanitariya uskunalaridan foydalanish, O'zbekiston qishloq xo'jaligi va kundalik hayotida suvdan oqilona foydalanishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Saudiya Arabistonining yomg'ir suvi yig'ish tizimlaridan foydalanish tajribasi ham O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkin. Tog'li hududlarda yomg'ir suvi yig'ish havzalarini tashkil etish va suv omborlarini qurish orqali suv resurslarini ko'paytirish va mahalliy aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyati mavjud. Shuningdek, Saudiya Arabistonining suvni qayta ishlash va undan takroriy foydalanish bo'yicha tajribasi O'zbekistonda sanoat korxonalari va kommunal xizmatlar tomonidan chiqindi suvlarni tozalash va ulardan texnik ehtiyojlar uchun foydalanishni tashkil etishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu, ayniqsa, suv resurslari cheklangan bo'lgan Qoraqalpog'iston va boshqa qurg'oqchil hududlar uchun juda muhimdir.

Saudiya Arabistonida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qat'iy nazorat choralari va jarimalar tizimi mavjud. Ushbu tajribani O'zbekistonga tatbiq etish, sanoat korxonalari tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorini nazorat qilish, chiqindilarni qayta ishlash va utilitatsiya qilish bo'yicha talablarni qat'iy belgilash va ularning bajarilishini ta'minlash orqali atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga yordam beradi. Bundan

tashqari, O'zbekistonda ekologik monitoringni avtomatlashtirish va real vaqt rejimida ma'lumotlarni olish tizimini yaratish, Saudiya Arabistonining zamonaviy monitoring uskunalaridan foydalanish tajribasiga asoslanishi mumkin. Bu ekologik vaziyatni tezkor baholash va unga munosabat bildirish imkonini beradi.

Saudiya Arabistonida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari va standartlar O'zbekiston uchun namuna bo'lishi mumkin. Masalan, sanoat korxonalarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish bo'yicha qonunlarni takomillashtirish zarur. Shuningdek, Saudiya Arabistonining ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish bo'yicha olib borayotgan ishlari O'zbekistonda ham ekologik madaniyatni shakllantirish va aholining atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, oliy ta'lim muassasalarida ekologik ta'limni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularda materiallarni yoritishni ko'paytirish lozim.

Saudiya Arabistoni qurg'oqchil iqlim sharoitida suv resurslarini boshqarishda sezilarli tajribaga ega. Suv tanqisligini bartaraf etish uchun mamlakat dengiz suvini chuchuklashtirish, yer osti suvlaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Saudiya Arabistonining chuchuklashtirish quvvati dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega bo'lib, aholi va sanoat ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Yer osti suvlaridan foydalanish qat'iy nazorat ostida bo'lib, qayta tiklanish darajasidan oshib ketishining oldini olishga harakat qilinadi. Qishloq xo'jaligida sug'orishning tomchilatib sug'orish va purkash kabi zamonaviy usullari keng qo'llanilmoqda.

³⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Saudiya Arabistonidagi islohotlarni O'zbekistonga tatbiq etishning ekologik oqibatlar³⁹

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligining oshishi	30%	Saudiya Arabistonidagi tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini 30% ga oshirishi mumkin.
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining diversifikatsiyasi	15 xil ekin	Saudiya Arabistonida qurg'oqchilikka chidamli ekinlarni yetishtirish tajribasini qo'llash O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xilma-xilligini 15 xil ekinga yetkazishi mumkin.
Cho'llanish darajasining kamayishi	10% kamayish	Saudiya Arabistonidagi qumlarni mustahkamlash va o'rmonlashtirish loyihalari O'zbekistonda cho'llanish darajasini 10% ga kamaytirishi mumkin.
Yer osti suvlarining tiklanish darajasi	5% ga ko'payish	Suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash va yer osti suvlaridan oqilona foydalanish natijasida O'zbekistonda yer osti suvlarining tiklanish darajasi 5% ga ko'payishi mumkin.
Sho'rlanish darajasining pasayishi	7%	Melioratsiya ishlarini yaxshilash va sho'r yuvish texnologiyalarini qo'llash orqali O'zbekistonda sho'rlanish darajasi 7% ga pasayishi mumkin.

Suv resurslarini boshqarishda davlat subsidiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu subsidiyalar suvdan haddan tashqari foydalanishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, Saudiya Arabistoni suv narxlarini asta-sekin oshirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, suvni tejash bo'yicha aholi orasida targ'ibot ishlari olib borilmoqda va suvni tejovchi maishiy texnika vositalarini (masalan, dush kallaklari, hojatxonalar) ishlatish rag'batlantirilmoqda. Bularning barchasi cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy xulosaga keladigan bo'lsak, Saudiya Arabistonidagi islohotlarni O'zbekistonda qo'llash ekologik landshaftda sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Suv resurslarini boshqarishdagi takomillashtirilgan texnologiyalar, qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan amaliyotlar va cho'llanishga qarshi kurash strategiyalari O'zbekiston uchun o'ta muhim bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, sanoat chiqindilarini boshqarish va havo ifloslanishini kamaytirish borasidagi Saudiya Arabistonining tajribasi ham O'zbekistonda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ekologik muammolar global miqyosda dolzarbligini hisobga olsak, ushbu tadqiqotning ahamiyati yaqqol seziladi. O'zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash kelajak avlodlar uchun ham zaruriy vazifa hisoblanadi.

Kelgusida O'zbekiston hukumati Saudiya Arabistonining ijobiy tajribalarini hisobga olgan holda, milliy ekologik siyosatni takomillashtirishi, qonunchilik bazasini mustahkamlashi va jamoatchilikning ekologik savodxonligini oshirishga e'tibor qaratishi lozim. Bundan tashqari, mintaqaviy ekologik hamkorlikni kuchaytirish orqali O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik barqarorlikni ta'minlashda yetakchi rol o'ynashi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Doniyorov Og'abek Ilhom o'g'li Buxoro davlat universiteti "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishi talabasi / Doniyorov Ogabek Ilhom ogli Bukhara State University Student of the "Finance and Financial Technologies" department Дониёров Огабек Илхом угли / Бухарский государственный университет Студент факультета «Финансы и финансовые технологии»

E-mail: ogabekd20@gmail.com

ORCID: 0009-0004-0514-7404

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- <https://www.mdpi.com/1996-1073/17/11/2444> Saad F. Al-Gahtanining "Saudi Arabia's Journey toward a Renewable Future" (2024)
- <https://carececo.org/upload/iblock/6cb/Water%20Sector%20Development>
- Umarov Pulatning "Sug'oriladigan yer maydonlari va ularning aholi boshiga to'g'ri keladigan miqdori" (2013)
- Abdullayev Iskandar, Strikeleva Ekaterina va Rakhmatullayev Shavkat 2020 yilda "Water Sector Development in Central Asia : Status Review and Development Options"
- <https://www.researchgate.net/publication/257765784>
- Grace B. Villamor — O'zbekistonga oid tadqiqotlar olib borgan. U hamkasblari bilan "Economic analysis of afforestation of marginal croplands in Uzbekistan"
- <https://www.sgi.gov.sa/about-sgi/sgi-targets/greening-saudi/>
- <https://ussaudi.org/water-in-saudi-arabia-desalination-wastewater-and-privatization/>

³⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



9. Saad F. Al-Gahtanining "Saudi Arabia's Journey toward a Renewable Future" (2024)

10. Smart Water Magazine (2023). *Uzbekistan completes major digital twin water management project.*
<https://smartwatermagazine.com>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz